

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOVA DILAFRO'Z HALIMOVNA

**TARJIMADA VARIANTLILIK VA INVARIANTLILIK (AKA-UKA
GRIMM ERTAKLARINING O'ZBEKCHA TARJIMA VARIANTLARI
MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Karimova Dilafro'z Halimovna

Tarjimada variantlilik va invariantlilik (aka-uka Grimm ertaklarining o'zbekcha tarjima variantlari misolida) 5

Каримова Дилафруз Халимовна

Вариантность и инвариантность в переводе (на примере вариантов перевода сказок братьев Гримм) 23

Karimova Dilafruz Halimovna

Variability and invariability in translation (on the example of Uzbek translation versions of Grimm's fairy tales) 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOVA DILAFRO'Z HALIMOVNA

**TARJIMADA VARIANTLILIK VA INVARIANTLILIK (AKA-UKA
GRIMM ERTAKLARINING O'ZBEKCHA TARJIMA VARIANTLARI
MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2019.3.PhD/Fil985 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	O'rayeva Darmon Saidaxmedovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Karshibayeva Uljan Davirovna filologiya fanlari doktori, professor Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «27» may soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (301 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «03» may kuni tarqatildi.

(2023-yil «03» may dagi 23-18 - raqamli reestr bayonnomasi.)



M.Q.Baqoyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.M.Jo'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon qiyosiy folklorshunosligi hamda tarjimashunosligida turli tizimli tillarda so‘zlashuvchi, har xil muhit va sharoitda yashovchi xalqlarning milliy qadriyatlari, madaniy turmush tarzi an‘analari, urf-odatlarini, e‘tiqodiy qarashlarini o‘zida badiiy mujassamlantiruvchi ertaklarning tarjimasiga hamisha alohida e‘tibor qaratilgan. Zero, ertaklar tarjimasiga xos jihatlari, badiiy tarjima usullari, asliyat va tarjima munosabati, grammatik va stilistik transformatsiyalar haqida qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelishiga imkon yaratildi. Shu o‘rinda ertaklar tarjimasiga, ularda variantlilik va invariantlilikning paydo bo‘lishi, bunda alfavitning o‘zgarishi, davr va shaxs mafkurasi taraqqiyoti asosiy omil ekanligini asoslash, tarjima variantlarning fonetik, grafik, leksik, sintaktik, stilistik turlari, invariant hodisasiga xos xususiyatlarni o‘rganish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo xalqlari ertaklarining variantlashuv omillarini va ko‘rinishlarini qiyosiy adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik qatorida tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham oydinlashtirishga qiziqish tobora ortmoqda. Bu o‘z navbatida tarjimashunoslikda ertaklarni bir tildan boshqa tilga o‘g‘irishda pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik, antropologik yondashuvning kuchayishi, tarjima strategiyalari takomillashuvi, yangicha metodlar kashf etilishi adekvatlikka erishish imkonini kengaytirayotgani, tarjimada bir ertakning bir necha tarjimalari paydo bo‘lib, kelib chiqqan variant turlari orasidagi umumiy va differensial jihatlarni, asliyat va o‘g‘irma o‘rtasidagi ekvivalentlik, adekvatlik parametrlarini, bevosita hamda bilvosita tarjima variantlarini aloqadorlikni aniqlash, nazariy asoslarini ochishga xizmat qiladi.

Yurtimizda keng islohotlar olib borilayotgan, “...Ilmiy va ijodiy izlanishlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifa”¹ qilib belgilangan hozirgi kunlarda har bir fan sohasi qatori tarjimashunoslikda ham chuqur izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘qitishga, jahon hamjamiyati bilan bevosita muloqot qila oladigan mutaxassislar tayyorlashga, turli sohalarga oid adabiyotlarni xorijiy tillardan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan xorijiy tillarga bevosita asliyatdan tarjima qiladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga, tarjima amaliyotlarini yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga bo‘lgan ehtiyoj va katta e‘tibor asosida nemis ertaklarining o‘zbekcha tarjimalarini qiyosiy o‘rganish, ularning tarjima variantlari va invariantlarini aniqlab, pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlarini yoritish orqali nemis-o‘zbek adabiy aloqalari o‘z tarixiga ega ekanligini dalillash zarur masalalardan biridir. Nemis ma‘rifatchilik adabiyotining g‘oyaviy-badiiy takomiliga katta hissa qo‘shgan aka-uka Grimm ertaklari ham qator xorijiy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga bevosita va bilvosita tarjima qilingani uchun ularning tarjima variantlari, invariantlari nazariyasini yoritish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligi va tarjimashunosligiga oid ayrim tadqiqotlarda variant va invariant hodisalari haqida ba‘zi fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan.²Tarjimada variantlilik va invariantlilik hodisasining ayrim xususiyatlari L.Barxudarovning “Til va tarjima” asarida qisqagina bo‘lsa-da, yoritilgan.³

O‘zbek tilshunoslaridan A.Nurmonov, Sh.Rahmatullayev, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M.Qurbonova, G.Sh.Boqiyevalarning maqola va kitoblarida tilda mohiyat va hodisa, variantlilik va invariantlilik haqida ba‘zi fikrlar uchraydi.⁴O‘zbek tarjimashunoslaridan J.Sharipov ilk bor “tarjima variantlari” terminini qo‘llagani kuzatiladi.⁵O‘zbek folklorshunosligida variantlashish hodisasi T.Mirzayev tomonidan “Alpomish” dostoni misolida maxsus tadqiq qilingan.⁶

Nemis va o‘zbek ertaklari tarjimashunosligining shakllanishi va nazariy

² Ельмслев Л. Метод структурного анализа лингвистике. – М., 1960. – С.52; Урсул А.Д. Теоретико-познавательное значение принципа инвариантности. // “Симметрия, инвариантность, структура” (Философские очерки). – М., 1967. – 272 с.; Илларионов С.В. Гносеологическая функция принципа инвариантности. — Вопросы философии. – 1968. – № 12. – С.91; Щур Г.С. Теории поля в лингвистике. – М., 1974. – 221 с.; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд., стер. – М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004. – 176 с.; Edward I., Keenan - Edward P.Stabler. Linguistic Invariants and Language Variation. – 12th Int. Cong. Logic Methodology and Philosophy of Science, LMPS’03. Oviedo, Spain, 2003;.

³ Бархударов Л. Язык и перевод. – М., 1975. – С.5.

⁴ Нурмонов А. Лисоний бирликларда умумийлик-хусусийлик, моҳият-ходиса диалектикаси. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1995. – 1-сон. – Б.42; Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1984. – 5-сон; Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Boqiyeva G. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Fonetika – Leksikografiya). – T., 2005.

⁵ Шарипов Ж. Ўзбекистонда таржима тарихидан. – Тошкент: Фан, 1966; Шарипов Ж. Бадий таржималар ва мохир таржимонлар. – Тошкент: Фан, 1972.

⁶ Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – 168 б.

taraqqiy topishida K.Rayxl, Y.Nurmurodov, Sh.Ro‘ziev, X.Raximov, X.Ro‘zimboevlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.⁷

O‘zbek qiyosiy folklorshunosligida amalga oshirilgan B.Shamsiyeva, Z.Tursunov, Z.Jumaniyozov, H.O‘.Yusupova, M.M.Jo‘rayeva, U.Yo‘ldoshev, R.R.Kasimova, O.M.Fayzulloevlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlar ham bu jihatdan alohida e‘tiborni tortadi.⁸ Ularda o‘zbek xalq ertak, doston, latifalarining nemis, fransuz, ingliz tillariga tarjimasi muammolari tadqiq etilgan. Biroq shular orasida faqat H.O‘.Yusupova tadqiqotida tarjimada variantlilik xususida qisman munosabat bildirib o‘tilgan. Boshqasida esa tarjimada variantlilik va invariantlilik muammosiga daxl qilinmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Qiyosiy-tipologik izlanishlar va tarjimashunoslik muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tarjimada variantlilik va invariantlilik nazariyasi, kelib chiqish asoslari, paradigmatic xususiyatlarini nemis aka-uka Grimm ertaklarining o‘zbekcha tarjimalari misolida qiyosiy aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarjimada variantlilik va invariantlilik tushunchalarining mohiyati hamda spesifik xususiyatlarini ochish;

tarjimada variantlilik va invariantlilik kelib chiqishining asos va omillarini oydinlashtirish;

bevosita va bilvosita tarjimaga xos jihatlarni, ertaklarda umuminsoniy xususiyatlarning ifodalanishini asoslash;

aka-uka Grimm ertaklarining nemis tilidan o‘zbek tiliga bevosita asliyatdan va bilvosita rus tilidan tarjima variantlarini, ularning mutarjimlari mahoratini aniqlab, har bir variantiga xos umumiy va differensial belgilarni dalillash, davriy statistik jihatdan tasniflash;

Grimmlar ertaklarining o‘zbekcha tarjima variantlarida mutarjimlar

⁷ Reichl K. Uzbek Epic Poetry: Traditions and Poetic Diction. – Hainsworth, 1989; Reichl Karl. Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure. Garland Publishing,inc. – New York & London, 1992. – 395 p.; Нурмуродов Й. История изучения и проблемы научно-литературного перевода узбекского фольклора на немецкий язык: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т.: ИЯЛ АНРУз, 1983. – 192 с.; Рузиев Ш. К вопросу узбекско-немецких литературных связях: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Т.: ИЯЛ АНРУз, 1974. – 30 с.; Рахимов Х. Deutsch – немисми, олмонми? Т., 2006.; Рўзимбоев Х. Хоразм фольклорининг хорижда ўрганилиши тарихидан: Фил. фан. номз. дисс. – Т., 1996.

⁸ Шамсиева Б. Вопросы узбекского фольклора в зарубежном литературоведении: Фил. фан. номз. дисс. – Т., 1994; Турсунов З. Эртактлар таржимасида миллий колоритни қайта яратиш. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 2004. – №5. – Б.70-72; Жуманиёзов З.О. “Равшан” достони немисча таржимасида миллийликни қайта яратиш: Филол. фан. номз....дисс. автореф. – Т., 2008. – 25 б.; Юсупова Х.Ў. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртактлар, латифалар мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2011. – 149 б.; Жўраева М. Француз ва ўзбек эртактларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Т.: Академия ноширлик маркази, 2017. – 87 б.; Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2017. – 42 б.; Касимова Р.Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Т., 2018. – 252 б.; Файзуллоев О.М. Ўзбек фольклоридаги лингвокультуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори ва эртактлар мисолида). – Т., 2019.

strategiyasi va uslubini, asliyatdan o'g'irishda ularning etnolingvistik bilimi rolini, bilvosita tarjimada tarjima usullarini uyg'unlashtirish tamoyillarini ko'rsatib berish;

mutarjimlar badiiy ijodi rivojiga tarjimachilik faoliyatining ta'sirini asoslash.

Tadqiqotning obykti. Dissertatsiyani yozishda aka-uka Grimmlar ijodiga mansub nemis adabiyotidagi ertaklarning bevosita va bilvosita amalga oshirilgan o'zbekcha tarjima matnlari asosiy manba sifatida tanlangan.

Tadqiqotning predmetini aka-uka Grimmlarning nemis adabiyotidagi ertaklari o'zbekcha tarjimalarida variantlilik va invariantlilik genezisi, spesifik belgilari, tasnifi, pragmatik-kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, tavsifiy-miqdoriy, qiyosiy-chog'ishtirma, kontekstual-situativ, kontekstual- distributiv, diskursiv, komponent tahlil hamda kross-madaniy usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

aka-uka Grimmlar ijodiga mansub nemis ertaklarining bevosita asliyatdan hamda bilvosita rus tili orqali berilgan o'zbekcha tarjimalari tarixi davriy nuqtai nazardan yoritilganligi tarjimada qayta tiklash jarayonining bayon etish vositalarini saqlash, muallif va mutarjim ovozining yaxlitligi, umuminsoniy jihatlarning ustuvorligi kabi tamoyillar asosida kechishini shartlashi asoslangan;

nemis ertaklarini tarjima qilishda variantlilik va invariantlilik hodisalarining yuzaga kelishi til, nutq va yozuvdagi orfoepik, orfografik me'yorlar talablarining o'zgarishi, alfavitning tez-tez yangilanishi natijasida paydo bo'lganligi, o'z navbatida biri ikkinchisini inkor etmasligi tufayli variantlashgani isbotlangan;

nemis ertaklarining o'zbekcha tarjima variantlari turlari orasidagi umumiy va differensial jihatlari, pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlar, asliyat va o'girma o'rtasidagi ekvivalentlik va adekvatlik, bevosita hamda bilvosita tarjima variantlararo aloqadorlik parametrlari va ular o'rtasidagi tafovutning tarixiy shartlanish sabablari aniqlangan;

tarjima variantlarida mutarjimlarning tarjima usullarini uyg'unlashtira olish hamda so'z qo'llash, sharq va g'arb milliy-madaniy, mental voqeligi uyg'unlashuvini ta'minlash, obrazni qayta yaratish mahorati, etnolingvistik bilimlarining ahamiyati, badiiy ijod rivojiga tarjimachilik faoliyatining birlamchi qiymat kasb etishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aka-uka Grimmlar ijodiga mansub nemis ertaklarining badiiy-uslubiy vositalari, tarjimaga madaniyatning ta'siri, milliy-madaniy leksik birliklar tarjimasida adekvat tarjimaga erishishning samarali metodlari, transformatsiyalashuv holatlari aniqlangan;

leksik, grammatik va stilistik vositalarni o'g'irishda ekvivalentlik va adekvatlik tamoyillarining o'rni ilmiy baholangan;

bevosita va bilvosita tarjimada asliyat tili mansub xalqning mental jihatlari, urf-odat va an'analari tarjima tili mansub xalq bilan muvofiqlik/nomuvoqlik holatlari belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada muammoning aniq yondashuv usullari, nazariy ma'lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan

olingani, qo‘llanilgan ilmiy-metodologik yondashuv va usullar, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar qiyosiy-tipologik, tavsifiy-miqdoriy, qiyosiy-chog‘ishtirma, kontekstual-situativ, kontekstual-distributiv, diskursiv, komponent tahlil hamda kross-madaniy usullar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda chiqarilgan nazariy xulosalar ertak poetikasi, uning variantlashish turlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirishi, nemis va o‘zbek ertaklaridagi umumiy va xususiy jihatlar bilan aloqador tadqiqotlarda mazkur ish muayyan darajada ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida, umumta‘lim maktablarida yoshlarga folklor asarlari, xususan, undagi qadimiy va an‘anaviy janr – ertak haqida adabiy-nazariy ma‘lumotlar berishda, nemis ertaklarini o‘rgatishda, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, adabiy terminlar lug‘atini yaratishda, ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borishda, ta‘lim tizimida bolalar adabiyotini o‘qitishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tarjimada variantlilik va invariantlilik hodisalari mohiyatini aka-uka Grimm ertaklarining o‘zbekcha tarjima variantlari misolida aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

aka-uka Grimmlar ijodiga mansub nemis ertaklarining bevosita asliyatdan hamda bilvosita rus tili orqali berilgan o‘zbekcha tarjimalari tarixi davriy nuqtai nazardan yoritilgan va tarjimada qayta tiklash jarayonining bayon etish vositalarini saqlash, muallif va mutarjim ovozinig yaxlitligi, umuminsoniy jihatlarining ustuvorligi kabi tamoyillar asosida kechishiga oid xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 25-yanvardagi №17.01/133-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu dissertatsiyada o‘z asarlari bilan poetik an‘analarga sadoqati barobarida individualligini to‘la namoyon eta olgan ijodkorlarning badiiy-estetik tajribalari haqidagi ilmiy xulosalar adabiyot va adabiyotshunoslik tarixini yoritish tamoyillarini belgilashda o‘z o‘rniga egaligini asoslashga xizmat qilgan;

nemis ertaklarni tarjima qilishda variantlilik va invariantlilik hodisalari yuzaga kelishida til, nutq va yozuvdagi orfoepik, orfografik me‘yorlardagi talablarning o‘zgarishi, alfavitning tez-tez yangilanishi natijasida paydo bo‘lganligi, ammo biri ikkinchisini inkor etmasligi tufayli variantlashganiga nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018-yillarda amalga oshirilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2- CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” innovatsion tadqiqot loyihasi bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 13-iyundagi

№1745/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tarjimashunosligi va qiyosiy folklorshunosligida tarjima variantlari, invariantlilik tushunchalarining mohiyati, paydo bo'lish omillari, nazariy qoidalari ochib berildi;

nemis ertaklarining o'zbekcha tarjima variantlari turlari orasidagi umumiy va differensial jihatlar, pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlar, asliyat va o'girma o'rtasidagi ekvivalentlik va adekvatlik, bevosita hamda bilvosita tarjima variantlari aloqadorlik parametrlari va ular o'rtasidagi tafovutning tarixiy shartlanish sabablari bilan bog'liq xulosa va natijalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza", "Adabiy muhit", "Asrlarning asraganlari" teleko'rsatuvlari, shuningdek, "Muloqot va munozara", "Qadriyatlar qadim beshigi" radioeshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 7-iyundagi №1/132-son ma'lumotnomasi). Natijada bu ko'rsatuvlarni tayyorlashda buxorolik shoirlarning asarlari, ijodiy merosi, xususan, turli tizimli tillardagi asarlarni asliyatdan o'girishda til bilish mahorati bilan bog'liq qiziqarli tahliliy materiallar teletomoshabinlar e'tiboriga havola qilingan. Bu esa ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashishini, ilmiy dalillarga boy bo'lishini hamda ilmiy-ommabopligi oshishini ta'minlagan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, o'rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tarjimada variantlilik va invariantlilik tushunchalarining mohiyati hamda spesifik xususiyatlari**" deb atalgan. Uning "Tarjimada variantlilik hamda invariantlilik tushunchasi va mohiyati" deb nomlangan ilk faslida bu ikkala atamaning mohiyati ochib berilgan. Negaki, keyingi paytlarda variantlilik va invariant atamalari juda ko'p fanlar doirasida keng qo'llaniladigan bo'lib qoldi. Bu ko'pincha tilshunoslik va adabiyotshunoslikda kuzatiladi. Aslida falsafaning gnoseologiya bo'limi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan "mohiyat" va "hodisa" tushunchalari zamirida paydo bo'lgan variantlilik

va invariant tushunchalari har bir fanning spesifikasidan kelib chiqqan holda turlicha o'rganiladi. U haqda tadqiqotlarda turlicha fikrlar, yo'nalishlar vujudga kelgan. Bu tushuncha va hodisalar tarjimashunoslik sohasiga ham daxldordir.

“Variant” deganda, bir matnning boshqa bir matnni inkor etmagan holda yonma-yon yashashi tushuniladi. Variantlar bir-biridan katta farq qilmaydi. Bu tushuncha bilan bog'liq holda “variant”, “variantdosh”, “variantlilik” atamalari qo'llanadi.

“Variant” so'zi lotincha “Varius”⁹ so'zidan olingan bo'lib, “har xil”, “turlicha”, “xilma-xil” degan ma'nolarni bildiradi. “Variant” tushunchasi tarjimashunoslikda qo'llanganda, ma'lum bir asarning tarjima jarayonida vujudga keltirilgan, bir-biridan sal bo'lsa-da farq qiluvchi turli tarjima matn nusxalarini bildirib keladi. Bunday matnlar ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash va yaqin bo'ladi.

Tarjima variant ma'lum bir asarning aniq ko'rinishi bo'lib, ba'zan ularda ayrim so'z, ifoda yoki ibora tushurib qoldirilishi yoki mutarjim biladigan tilda yoki anglagan xolatda o'zgartirilishi mumkin. Bir asar tarjimasining ozmi-ko'pmi farqlarga ega bo'lishiga qaramay, ular baribir syujet, kompozitsiya, obraz va motivlar tuzilishidagi umumiy belgilarini saqlab qolaveradi.

Tarjima variantlarida badiiylik darajasi qay darajada saqlanganligi uning ahamiyatini, nufuzini belgilaydi. Tarjima varianti hajm jihatdan bir xil bo'lmaydi. Bu tarjimonning so'z bilish va uni tarjimada keltirish mahorati bilan bog'liq.

Bir so'z bilan aytganda, har bir tarjima varianti o'zicha mustaqildir. Ularning biriga asosiy, boshqa yana biriga ikkinchi darajali o'rin berib bo'lmaydi. Ammo ulardan qay biri asliyatga juda yaqinligi mutarjimning matnga professional yondashganligi, ma'lum ustunliklari sifatida yaqqol ko'rinadi. Tarjima variantlarini bir-biriga solishtirilganda ularga xos ustun tomonlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tarjima variantlilikini tor va keng ma'noda tushunish mumkin. Birinchisi, tor ma'noda u yoki bu asarning ba'zi so'zlari, satrlari, obrazlari, o'rtasidagi farqlar, o'zgartirishlar tushuniladi. Ikkinchisi, keng ma'noda bir asarning yonma-yon turuvchi, ammo bir-birini inkor etmaydigan har xil tarjima matnlari anglashiladi.

“Variantlilik” tushunchasi nafaqat yirik bir asar tarjimalari, balki bitta asar tarkibida muayyan so'z va iboralarning bir necha xil tarzda berilishiga ham daxldordir.

Tarjimashunos J.Sharipovning “O'zbekistonda tarjima tarixidan” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida o'zbek adabiyotiga oid bir necha asarlarning tarjima variantlari borasida fikr yuritilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Invariant tushunchasi tilshunoslikka falsafadan kirib kelgan bo'lib, “barqaror, o'zgarmas belgilar yig'indisi” degan ma'noni bildiradi. Falsafiy tushuncha sifatida “invariant” ko'rinishi “variant” atamasiga zid qo'yiladi. Bunday zidlantirish L.Yelmslev asarlarida yorqin ifodasini topgan. Uning ta'kidlashicha, matnning ko'p joylarida “ayni bir xil qo'shma gaplar”, “ayni bir xil sodda gaplar”, “ayni bir xil” so'zlar va hokazolar uchraydi¹⁰. Boshqacha aytganda, har bir qo'shma gapning, har bir sodda gapning, har bir so'zning bir qancha namunalari uchraydi.

⁹ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд., стер. – М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004.

¹⁰ Ельмслев Л. Метод структурного анализа лингвистике. – М., 1960. – С.52; Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М., 1961. – С. 217-218.

Ana shu bir qancha namunalar variantlar, bu variantlar ortidagi mohiyat esa invariant sanaladi¹¹.

Demak, har bir invariant bir qancha variantlar orqali voqelanadi, yuzaga chiqadi. Invariant nazariyasining vujudga kelishi gnoseologiya uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki u in'ikos nazariyasini chuqurlashtirdi va unga aniqlik kiritdi.¹²Invariantlilik tushunchasining hamda invariantlilik tamoyillarning atroflicha o'rganilishi qator fanlar doirasida kuzatiladi.

Tilning barcha sohaları uchun umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa dialektikasi amal qiladi. Umumiylik, mohiyat – invariant xususiyliklar, variantlar orqali namoyon bo'ladi. Invariant va variantlar bir qatordagi hodisalar emas, balki turli qatordagi, ikki bosqichga mansub hodisalardir. Invariantning namoyon bo'lish shakllari variantlar ekan, demak, invariantlar-variantlar umumlashmasidir. Variantlar qatorida hech biri boshqasiga invariant bo'la olmaydi.¹³

Birinchi bobning ikkinchi fasli “Tarjimada variantlilik va invariantlilik kelib chiqishiga til hamda tarjima tamoyillarining ta'siri” deb yuritilgan. Tarjimada variantlashuv kelib chiqishiga tildagi ortiqchalik tamoyilining muayyan darajadagi ta'sirini kuzatish mumkin. Sababi shuki, mutarjim o'zi uchun notanish realiyalarni ko'pincha izohli tarjimada ifoda etadi. Natijada matnda leksik birliklar soni asliyatdagidan ko'ra ortadi. Shuningdek, ba'zi tarjimalarda, aksincha, tejamkorlik tamoyiliga asoslanish kuzatiladi. Aytaylik, mutarjim keltirilgan frazeologik birlikni yoki tasviriy ifoda (perifraza)ni tarjimada qayta yarata olmasa, uni tashlab ketadi yoki bir necha so'zdan iborat bo'lgan frazeologizmni, aniqlovchili birikmalar, metaforali birikmalarni oddiy so'z bilan ifodalab ketaverishi mumkin.

Ertaklar qaysi tilga tarjima qilinmasin, imkon qadar uning asliyatiga xos xalqchilligini, g'oyaviy mazmunini, badiiy xususiyatlarini, asosiy rolini va obrazlarini saqlab qolishga harakat qilinadi. Shunday bo'lsa-da, uning leksik, grammatik, stilistik jihatlarini to'liq saqlab qolishning imkoniyati chegaralangan bo'ladi.

Asliy matnning tarjima matnga aylantirilishida mutarjim mahoratidagi individual xususiyatlar o'z ta'sirini namoyon etadi.

Aka-uka Grimmlarning “Bir xumcha shovla” ertagi o'zbek tiliga turli yillarda bir necha bor tarjima qilingan. Ular ko'proq rus tili vositasida o'zbek tiliga o'girilgan. Bu tarjimalar quyidagilardir: 1. O'zbek bolalar shoiri Adham Rahmat tomonidan 1938 yilda amalga oshirilgan vositali tajima. U o'sha yillarda amalda bo'lgan lotin yozuvida, o'zbek tilida chop etilgan.¹⁴ 2. Oradan 40 yil o'tib, bu ertak mutarjim mutaxassis Surayyo To'raxonova tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan va kirill yozuvida 1978 yilda chop qilingan.¹⁵ 3. Ushbu ertak 2008 yilda internet sayti orqali ham e'lon qilingan, ammo uning tarjimoni aniq ko'rsatilmagan.

Ertakning shu uchala tarjima nusxasini qiyosiy o'rganish natijasida quyidagi

¹¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Boqiyeva G. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Fonetika – Leksikografiya). – T., 2005.

¹² Илларионов С. В. Гносеологическая функция принципа инвариантности. – Вопросы философии. – 1968. – № 12. – С.91.

¹³ Ельмслев Л. Метод структурного анализа лингвистике. – М., 1960. – С.52; Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М., 1961. – С. 217-218.

¹⁴ Ака-ука Гримм эртаклари. Адхам Раҳмат таржималари. – ЎзССР Давлат нашриёти, 1938. – Б.36-38.

¹⁵ Ака-ука Гримм эртаклари. Русчадан Сурайё Тўрахонова таржимаси. – ЎзЛКСМ МК “Ёш гвардия” нашриёти, 1978. – Б.447.

farqli belgilari borligi aniqlandi: Birinchidan, Adham Rahmat o‘zi shoir bo‘lganligi uchun ertak badiiyatini saqlashga katta e‘tibor bilan yondashgan. Masalan, uning tarjimasida shavlanning oqishi daryo oqishiga o‘xshatilgan bo‘lsa, S.To‘raxonova tarjimasida ariqqa o‘xshatilgan. Uchinchi tarjimada esa bunday ifodaning o‘zi mavjud emas. Ikkinchidan, Adham Rahmat so‘zlarni aniq qo‘llashga harakat qilgan. Masalan, u ertak qahramoni – qizchanning o‘rmonga aynan maymunjon tergani ketganini aytsa, boshqa tarjimalarda uning o‘rnida umumiy ma‘no anglatuvchi “meva” so‘zi qo‘llangan. Bu holat kampirning qizchadan maymunjon so‘rashi motivida ham saqlangan. Uchinchidan, Adham Rahmat ertakni eski lotin yozuvida qayta bayon etgani uchun unda unli va undosh tovushlar o‘sha davr grafikasi qonunlariga muvofiq berilgan: a) unli grafikasida: o – o (ko‘p-kop, to‘ldi-toldi), o – a (bor-bar, biron-biran) tovushlari o‘zgargan holda talaffuzda ifoda etilgan. Rus tili ta‘sirida o‘zbek tiliga o‘zlashgan ya, yo, yu, yo kabi yolashgan tovushlar bitta j tovushini qo‘shish orqali yozilgan. Masalan: ya-ja (kifoya-kfaja), ye-je (yetgunicha-jetgunica), yu-ju (yugurdi-jugurdi), yo-ja (qayoqqa-qajaqqa) kabi; b) undoshlar grafikasida: g‘-q (savqab og‘ir-aqir), y-j (to‘xtaydi-toxtajdi, qo‘yib-qojib, yo‘l-jol), ch-s (uch-us, ko‘cha-koca), g-q (qolgan – qalqan) bilan almashgan holati kuzatiladi. To‘rtinchidan, tildagi tejamkorlik tamoyiliga muvofiq talaffuzda qisqa unililarning tushib qolish holati ko‘zga tashlanadi: shirin-shrin, shikoyatlanmadi-shkoyatlanmadi. Beshinchidan, ertak nomi ilk variantda “Bir xurmacha shavla”, ikki variantda esa “Bir xumcha shovla” deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, shavla va shovla so‘zlari ham ikki xil yozilgan. Agar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga qaralsa, unda “shovla” so‘zi emas, shavla so‘z berilgan. “Shavla” forscha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida o‘zlashgan so‘zlar qatorida turadi. Shavla guruchdan tayyorlangan yumshoq osh yoki go‘sh, sabzi-piyoz va guruch solib pishiriladigan bo‘tqasimon ovqat turini anglatadi.¹⁶

Xurmacha, odatda, qatiq ivitish, sut solib qo‘yish uchun ishlatiladigan qo‘shquloq sopol idishni bildiruvchi xurma so‘ziga otlarga qo‘shiladigan -cha kichraytirish shakli qo‘shimchasini qo‘shishdan hosil qilingan. Xurma+cha=xurmacha so‘zi kichik xurma ma‘nosini anglatadi. Xumcha so‘zi ham shu tarzda hosil qilingan. U fors-tojikcha katta ko‘za ma‘nosini bildiruvchi xum+cha=xumcha so‘ziga aloqador. Xum biror suyuqlik, don va shu kabilarni saqlash uchun turli kattalikda yasaladigan, og‘zi torroq sopol idish bo‘lsa, xum uncha katta bo‘lmagan, kichik xum hisoblanadi.¹⁷ Demak, ushbu izohlar asosida xumcha va xurmachaning tuzilishida, yasalish usulida, ko‘rinishida biroz farq bor.

Oltinchidan, ertakda xumcha shavla qaynatishi uchun shart sifatida aytiladigan she‘riy parcha berilishida farq bor:

A.Rahmat tarjimasida:	Boshqa ikkala tarjimada:
Bir, ikki, uch – Xurmachada shavla pish.	Men uchgacha sanasam, Qayna, sehrli xumcham!

Faqatgina keyingi ikkala tarjimaning birinchisida she‘riy satrlar nihoyasi nuqta bilan, ikkinchisida undov belgisi bilan berilgan. Bu esa ularning aytilish

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд. Тартибот-Шукр. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.565.

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд. Тартибот-Шукр. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.446.

ohangida farq borligini ilg'ashga xizmat qiladi.

Mavjud tarjimalar so'z va qo'shimchalarning qo'llanishi nuqtai nazaridan ham ancha farq qiladi:

A.Rahmat: Onasi bu xurmachaga juda suyundi.	S.To'raxonova: Ona bu xumchani ko'rib quvonibdi.	Noma'lum tarjimon: Ona bu xumchani ko'rib quvonibdi.
---	--	--

Yettinchidan, uchala tarjimonning gap tuzilishini tanlashida o'zgachaliklar bor, ya'ni qaysinisidir sodda yoki murakkablashgan sodda gaplardan, qaysinisidir qo'shma, murakkab qo'shma gaplardan foydalanishi natijasida mikromatnlar hajmi turlicha bo'lib qolgan:

Uy ham shavlaga to'ldi. Uy oldida ham shavla, tomda ham shavla, hatto kochalar ham shavlaga to'ldi, u hamon to'xtamay shavlani pishiraverdi.	Xonaning hammayog'i shovlaga to'lib ketibdi, dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha esa hamon pishirayotganmish.	Xonaning hamma yog'i shovlaga to'lib ketibdi: dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha hamon pishirayotganmish. Tomlarga ham, hovlilarga ham shovla toshib chiqibdi. Hatto ko'chalardan ham shovla oqayotganmish.
--	---	--

Ertakning tarjima variantlari o'rtasidagi farqlarni quyidagi jadval asosida yanada yorqin kuzatish mumkin:

Ertakning "Bir xurmacha shavla" nomi bilan Adham Rahmat tarjimasi (1938)	Ertakning "Bir xumcha shovla" nomi bilan Surayyo To'raxonova tarjimasi (1978)	Ertakning "Bir xumcha shovla" nomi bilan Tarjimoni ko'rsatilmagan. (2008)
Boshlanishi: "Bor ekan, yo'q ekan, bir qizcha yashar ekan".	Boshlanishi: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qizcha bo'lgan ekan".	Boshlanishi: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qizcha bo'lgan ekan".
"Qizcha bir kuni o'rmonga maymunjon olib kelish uchun bordi va unda bir kampirni uchratdi.	"Qizcha meva tergani o'rmonga boribdi-yu, u yerda bir kampirni uchratib qolibdi.	"Qizcha o'rmonga meva tergani boribdi-yu, u yerda bir kampirni uchratib qolibdi.
– Salom, – debdi kampir qizchaga, – menga rahmetib maymunjonningdan bersangchi!	– Salom, qizcha, – debdi unga kampir. – Menga mevalaringdan ber, aylanay.	– Salom, qizcha, – debdi unga kampir. – Menga mevalaringdan ber, aylanay.
– Ma, kampir, – debdi, qizcha.	– Oling, buvijon, – debdi, qizcha.	– Oling, momojon, – debdi, qizcha.
Kampir maymunjonni eb bo'lib:	Kampir mevalardan biroz ebdi-da:	Kampir mevalardan biroz ebdi-da:
– Sen menga maymunjon berding, man ham senga biron narsa sovg'a qilaman, – debdi.	– Menga meva berding, endi senga men ham bir narsa sovg'a qilaman, – debdi.	– Menga meva berding, endi senga ham bir narsa sovg'a qilaman, – debdi.
– Mana senga xurmacha, sen faqat shuni aytishing	– Mana senga xumcha. Faqat:	– Mana senga xumcha. Faqat:

kerak: Bir, ikki, uch – Xurmachada shavla pish.	Men uchgacha sanasam, Qayna, sehrli xumcham. – desang bo‘ldi.	Men uchgacha sanasam, Qayna, sehrli xumcham! – desang bo‘ldi.
--	---	--

Ko‘rinyaptiki, ikkinchi va uchinchi tarjimada ertak boshlanmasi bir xil keltirilgan. Ularda vaqt noaniqlikni bildiruvchi “bir” so‘zi vositasida aniq ifodalanmagan.

Birinchi tarjimada salomlashish holati undalmasiz keltirilgan va salomning kimga qaratilgani kesim orqali ifoda qilingan. Unda -chi so‘roq-taajjub yuklamasi buyruq, iltimos ma‘nosida qo‘llangan. U o‘sha davr grammatikasiga ko‘ra so‘zga hozirgiday chiziqcha bilan qo‘shilmasdan, to‘ppa-to‘g‘ri qo‘shilib yozilavergan.

A.Rahmat tarjimasida ko‘makchi fe‘lli fe‘l qo‘shilmalari qo‘shib yozilgan: “Shunda u shirin, mazali shavla pishaboshlaydi!”. Yana uning tarjimasida “va” bog‘lovchisidan so‘ng vergul noo‘rin ishlatilgan: “Rahmat buvi, – dedi qizcha, va xurmachani olib uyiga onasining oldiga ketdi. Yoki yana: “U shavla pishiraboshladi”.

Xullas, bir ertakning har bir tarjima namunasi variantlarda tarqalishi va bir-biri bilan yonma-yon yashab kelishiga “tarjima varianti” deyiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Aka-uka Grimm ertaklari o‘zbekcha tarjima variantlarining shakllanish omillari va paradigmatic belgilari”** deb atalgan. Uning birinchi fasli “Aka-uka Grimm ertaklari o‘zbekcha tarjima variantlarining davriy statistikasi” deb nomlangan.

Aka-uka Yakob va Vilhelm Grimmlar nemis xalqining eng sevimli ertakchi-yozuvchilari bo‘lib, ular yaratgan ertaklar butun jahon kitobxonlarining e‘tiboriga tushgan. Bunda, albatta, ularning turli tillarga tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etgan. Ular yaratgan ertaklarning birinchi to‘plami “Bolalar va oila” (“Kinder und Familie”) nomi bilan 1812-yilda, 1815-yilda ikkinchisi, 1822-yilda esa uchinchi kitoblari nashr qilingan. Bu kitoblar aka-uka Grimmlarning nomini dunyoga tanitdi va tez orada jahonning ko‘pgina boshqa tillariga ham tarjima qilina boshlandi.

Aka-uka Grimmlar to‘plab, XIX asrning boshlarida Germaniyada “Kinder und Hausmärchen” nomi bilan nashr qildirishgan ertaklarning soni 200 dan ortiq bo‘lgan. Shundan so‘ng mazkur ertaklarni dunyoning ko‘pchilik xalqlari o‘z tillariga tarjima qilganlar. O‘zbek tiliga dastlab 1938-yilda rus tilidan Farid Rasul tarjima qila boshlagan. Ilk o‘zbekchalashtirilgan ertak nomi “Botir tikuvchi” edi. Bir yildan so‘ng Adham Rahmat aka-ukalarning “Bremen muzikachilari”, “Bir xurmacha shavla”, “Quyvon bilan tipratikan”, “Bo‘ri bilan yetti uloqcha”, “Yetti qarg‘a” ertaklarini ona tilimizga o‘g‘irgan. Bugungi kunda jahonning biror go‘shasi yo‘qki, aka-uka Grimmlar ertagi bormagan bo‘lsa, birorta madaniy til yo‘qki, ular tarjima qilinmagan bo‘lsa.

Ko‘rinadiki, nemis xalq ertaklariga bo‘lgan qiziqish O‘zbekistonda o‘tgan asrning birinchi choragidan kuchaygan. Ular 30-yillarning o‘rtalaridan boshlab tarjima qilina boshlangan va qayta-qayta nashr qilingan¹⁸, hozir ham nashr

¹⁸ Bori blan yetti ecki. – Yos kuc. – 1937. – № 8. – B.15-17; Bremen muzikachilari. – Yos kuc. – 1937. – № 9. – B.1-4; Beljankaxan va Rozaxan. – Yos kuc. – 1938. – № 11-12. – B.37-39; Aka-uka Grimm. Ertaklar. A.Rahmatov

etilmoqda. Aka-ukalar ertaklarining ilk nashrlari ham o'tgan asrning 30-yillari o'rtalaridan boshlangan. 1937-yilda ular ilk bor o'zbek tilida chop bo'lgan. Bunda ularning tarjimasi va nashri bilvosita (ruscha tarjimasidan) amalga oshirilganligi kuzatiladi. Keyingi yillarda esa ularning tarjimasi bevosita nemis tilidan o'zbek tiliga amalga oshirilgani kishini quvontiradi.

1937-yilda "Yosh kuch" jurnalining qator sonlarida aka-uka Grimmlarning ertaklaridan namunalar e'lon qilib borilgan. Masalan, jurnalning o'sha yilgi 8-sonida aka-ukalarning "Bo'ri bilan yetti echki", 9-sonida "Bremen muzikachilari", 1938-yilning 11-12-sonlarida esa "Belyankaxon va Rozaxon" singari ertaklari bolalar e'tiboriga havola qilingan. 1938-yilda aka-uka Grimmlarning "Botir tikuvchi" ertagi ilk marta alohida kitobcha holida F.Rasulov tarjimasida chop etilgan. 1938-yilda aka-uka Grimmlarning ertaklari ilk marta alohida to'plam holida chop etilgan. 45 sahifalik albom ko'rinishidagi bu kitobning tarkibida 8 ta ertak keltirilgan. Bular: "Bremen muzikasilari", "Mushuk blan sichqan", "Quyvon bilan tpiratkan", "Ahmaq Gans", "Aqlli Elza", "Bir xurmasa shavla", "Bori blan jetti echki", "Tulki blan g'azlar" kabi ertaklardir.

1963-yilga kelib, aka-uka Grimmlarning ertaklari "Bo'ron kampir" nomi bilan "Yosh gvardiya" nashriyoti tomonidan nashr etilib, unda R.Fuzailova tarjima qilgan "Bo'ron kampir", "Zolushka" ertaklari qatori M.Sodiqova o'zbekchaga o'giran "Bremen muzikachilari", "Yosh pahlavon", "Sirli odamchalar", "Foydali ish", "Yalqov Geyns", "Botir tikuvchi" kabi jami 8 ta ertak o'quvchilar e'tiboriga havola qilingan. Bu ertaklarda dangasa va epchil qizlar, o'zi yosh bo'lishiga qaramay katta kuchga ega bo'lgan yosh pahlavon, kambag'al kosibga yordam bergan sirli odamchalar va nihoyat, go'zal zolushka haqidagi qiziqarli va mo'jizaviy ertaklar keltirilgan.

XX asrning 70-80-yillariga kelib, aka-uka Grimmlar ertaklariga qiziqish yanada kuchaydi. Ushbu yillarda Surayyo To'raxonova rus tili orqali o'zbek tiliga o'giran ertaklar to'plami nashrdan chiqdi. Aka-uka Grimmlar ertaklarining ruscha tarjimasi vositasida Surayyo To'raxonova 1978-yilda tarjima qilib, "Yosh gvardiya" nashriyoti tomonidan albom ko'rinishida chop ettirgan to'plamda "Bremen mashshoqlari", "Quyvon bilan tipratikan", "Somon, cho'g' va loviya", "Bir xumcha shovla", "Bo'ron kampir", "Yetti qarg'a", "Yalqov Geyns", "Mitti odamchalar", "Oqoyim va Guloyim", "Uch baxtiyor", "Qo'li gul qizcha", "Botir tikuvchi", "Tulki bilan g'ozlar", "Uch aka-uka" kabi ertaklar tarjimasi amalga oshirilib, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun taqdim etilgan. Shu kitobning o'zida izohlanishicha, tarjimon uni "Detskaya literatura"ning 1967-yilgi nashridan tarjima qilgan.

1989-yilda Sano Saidov ham aka-uka Grimmlarning "Uch aka-uka" hamda "Chol va uning nevarasi" ertaklarini olmon tilidan o'zbekchaga o'girib, yoshlarning "Gulxan" jurnali 1-sonida e'lon qilgan.

1990-yilda aka-uka Grimmlar va Vilhelm Hauf qalamiga mansub 10 ta ertakdan iborat to'plam bevosita nemischa-o'zbekcha tarjimada nashr etildi. Bu Sharif Ro'ziyev va Mavlon Javbo'riyevlar tarjimasidagi "Sirli kema" to'plamidir.

Mustaqillik yillariga kelib, aka-uka Grimmlar ertaklarining tarjima qilinishi

tarcimasi. – Taskent: Davlat adabijati nasriyati, 1938. – 45 b.; Aka-uka Grimm. Altin Qaz. V. Rozmatov tarcimasi. – Taskent: Balalar va jaslar adabijati nyasriyati, 1939-40. – B.16.

jarayoni yanada taraqqiy etganligi seziladi. Bu esa, O‘zbekistonda ertak tarjimachiligining ma’lum tadrijiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tganligini ham ko‘rsatadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Xurram Raximov va Sharifa Salimovalar tarjimasida “Yetti oqqush” nomli olmon xalq ertaklari to‘plami chop etildi.

2015-yilda “Oila davrasida o‘qish uchun” rukni bilan chop etilgan “Ertaklar” kitobida aka-uka Grimmlarning “Qurbaqa shahzoda”, “Shirinlik uycha”, “Rapunsel”, “Bremen mashshoqlari” kabi to‘rtta ertaklari lotin yozuvida keltirilgan.¹⁹ Mazkur kitobdan o‘rin olgan “Qurbaqa shahzoda” va “Shirinlik uycha” ertaklarini mutarjim Abdurahmon Akbar nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “Rapunsel” hamda “Bremen mashshoqlari” ertaklarini esa tarjimon Ozoda Azimova o‘zbek tiliga o‘giran.

